

TERRORIZMGA QARSHI KURASHISHNI OLDINI OLISH

Aliyeva Intizor

Surxondaryo Yuridik texnikumi

Yuridik xizmat

1-kurs talabasiman

Anontatsiya: Ushbu maqolada terrorizmning zamonaviy ko‘rinishlari, uning jamiyat va davlat xavfsizligiga ta’siri hamda 2019–2025 yillar davomida kuzatilgan asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, terrorchilik faoliyatining oldini olishning huquqiy asoslari, xususan Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida yoritiladi. Maqolada terrorizmga qarshi kurashishda profilaktika choralari, davlat va jamiyat hamkorligi hamda xalqaro tajribaning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: terrorizm, terrorchilik faoliyati, xavfsizlik, profilaktika, huquqiy asoslar, xalqaro hamkorlik, radikalizm

Annotation: This article analyzes modern forms of terrorism, its impact on public and state security, and the main trends observed during 2019–2025. It also examines the legal framework for preventing terrorist activities, particularly based on the Law on Combating Terrorism and other regulatory legal acts. The study highlights the importance of preventive measures, cooperation between the state and society, and international experience in combating terrorism.

Keywords: terrorism, terrorist activity, security, prevention, legal framework, international cooperation, radicalism

Terrorizmga qarshi kurashish hozirgi kunda emas. Balkim, necha yillardan buyon kurashib kelmoqdamiz. Terrorizm bu butun dunyo hamjamiyati uchun eng jiddiy, xavf-xatarlardan biri hisoblanadi. Ushbu jinoyat nafaqat davlat xavfsizligiga, balki jamiyat barqarorligiga va inson huquqlariga ham katta zarar yetkazadi. So‘nggi o‘n yillikda terorizm dunyo bo‘yicha eng jiddiy xavf omillaridan biri sifatida qolmoqda. Terrorchilik faolligi nafaqat inson hayoti va sog‘lig‘iga, balki davlatlar siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Globalizatsiya jarayonida davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiya ortishi bilan terorizmning transmilliy shakllari ham kuchaymoqda. Shu bois, zamonaviy terorizmni o‘rganish va unga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

2019–2025 yillar davomida terorizmning global holati murakkab va ko‘p qirrali bo‘ldi. Global Terrorism Index (GTI) hisobotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha terrorchilik natijasida o‘limlar va hujumlar soni o‘zgaruvchan tendensiya ko‘rsatgan, lekin xavf hali ham sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Masalan, 2019 yilda terrorchilik voqealari ko‘plab

mamlakatlarda qayd etilgan bo'lsa, keyingi yillarda ularning umumiy soni kamaygan bo'lishiga qaramay, ayrim hududlarda tahdidlar kuchaygan. Shuningdek, yolg'iz hujumlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikallashtirish kabi yangi shakllar paydo bo'ldi, bu esa terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashishni murakkablashtirmoqda.

Terrorizmga qarshi kurash va insonlarni huquqlarni himoya qilish. Ushbu terrorizmga qarshi harakatga, bilmagan holda qo'shib qolish holatlarni oldini olishlik va terrorizm jinoyatini, oldini olish maqsadida davlat tomonidan himoya qilinadi va profilaktika choralari ko'riladi.

Terrorizmga qarshi kurashishning oldini olish — bu terrorchilik faoliyatini boshlanishidan oldin aniqlash, unga yo'l qo'ymaslik va xavfsizlikni mustahkamlash choralari ko'rishdir.

Profilaktika choralari quyidagilarni o'z ichiga oladi:
yoshlar orasida radikal g'oyalar tarqalishini oldini olish;
diniy ekstremizmga qarshi ma'naviy tarbiya;
axborot xavfsizligini oshirish;
xavfli hududlarni nazorat qilish va monitoring qilish.

Terrorizm jinoyati bitta aldo yo'li bilan qo'shib, qolishmayapti balkim ijtimoiy tarmoq, internet orqali ham terrorizm jinoyatlariga yo'l qo'yilmoqda. Terrorizm jinoyati oqimiga tushib qolgan insonlarni oldini olish. Terrorizmga qarshi kurashishning oldini olishda faqatgina huquqiy choralari emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarga ko'ra, terrorchilik faoliyatiga qo'shilish holatlarining aksariyati yoshlar orasida kuzatiladi va bu ko'pincha ishsizlik, ta'lim yetishmasligi hamda notog'ri axborot ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Terrorchilik jinoyatiga qarshi kurash ko'plab mamlakatlar terrorizmga qarshi kurashishmoqda. Shu o'rinda

O'zbekistonda ham terrorizmga qarshi kurashishning huquqiy asoslari mustahkamlanib, terrorizmga qarshi kurash to'g'risida qonun orqali profilaktika, aniqlash va oldini olish mexanizmlari belgilagan. Ushbu qonunga muvofiq, davlat organlari tomonidan terrorchilik faoliyatining oldini olish, aholini xabardor qilish va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tezkor chora tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekistonda terrorizmga qarshi profilaktika bir qator qonunlar bilan tartibga solinadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi — terrorchilik faoliyati uchun jinoiy javobgarlik;

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida qonun — oldini olish mexanizmlari va profilaktika tadbirlari.

Davlat organlari, jumladan, xavfsizlik xizmatlari, ichki ishlar organlari va maxsus tuzilmalar terrorchilik faoliyatini erta aniqlash va bartaraf etishda faol ishtirok etadi.

O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurashishning huquqiy asoslari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgani ko‘rsatiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish orqali terrorizmning oldini olishning asosiy kafolati hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida terrorchilik faoliyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, bu jinoyatlarning oldini olish va jazolash mexanizmini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida qonun terrorizmning oldini olish, aniqlash va unga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmlarini belgilab beradi. Ushbu qonunga muvofiq, davlat organlari tomonidan profilaktika tadbirlari amalga oshiriladi.

Amaliyotda esa xavfsizlik xizmatlari va ichki ishlar organlari tomonidan terrorchilik faoliyatini erta aniqlash, uning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha eng muhim choralar ko‘rilmoqda. Bu esa mamlakatda terrorizm xavfining past darajada saqlanishiga xizmat qiladi.

Terrorizmning eng xavfli jihatlaridan biri uning yashirin shakilda, ayniqsa internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalishidir.

O‘zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida qonunning 6-moddasiga muvofiq, terrorizmga qarshi kurashish faqatgina maxsus davlat organlarining vazifasi bo‘lib qolmay, balki butun jamiyatning hamkorligini talab etadi. Mazkur modda asosida davlat boshqaruv organlari, mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxona va tashkilotlar, shuningdek oddiy fuqarolar ham terrorizmga qarshi kurashishda faol ishtirok etishi belgilangan.

Ushbu qonunga muvofiq, terrorizmga qarshi kurashishda “jamiyat va davlat hamkorligi” prinsipini mustahkamlaydi. Ya’ni, xavfsizlikni ta’minlash faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarga emas, balki barcha fuqarolarga ham bog‘liq. Fuqarolarning ogohliligi, shubhali holatlar haqida xabar berishi va profilaktika tadbirlarida ishtirok etishi terrorchilik faoliyatining oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Terroristlik jinoyatlarini oldin olish va bilmagan holda terroristlik jinoyat ishga qo‘shilib qolgan, insonlarni himoya qilish va jinoyat ishga sherik bo‘lgan insonlarni barchasini o‘z vataniga qaytarish va ularni olish uchun zaruriy tezkor tadbir ko‘rilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi terrorizmga qarshi kurashish qonuning 7-moddasiga muvofiq, terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorligi yoritilgan. Ushbu qonunga muvofiq, boshqa mamalakatlar, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi

Terrorizmga qarshi kurash sohasida O‘zbekiston Respublikasining chet el davlatlari bilan, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari, maxsus xizmatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Terrorizmga qarshi kurashish, terrorizmning transmilliy xususiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda, uni faqat bir davlat doirasida bartaraf etish qiyinligini ko‘rsatadi. Shu sababli operatsiyalar va huquqiy yordam mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasiga qonuning 7-moddasiga muvofiq:

xorijiy davlatlar bilan axborot almashadi;

terrorchilik faoliyatiga qarshi qo‘shma chora-tadbirlar o‘tkazadi;

jinoyatchilarni aniqlash va javobgarlikka tortishda o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatadi;

xalqaro tashkilotlar

Ushbu qonunlar orqali insonlarning huquqlari himoya qilinadi. Qonuninga muvofiq, insonlar o‘z huquqlarini bilishligi lozim. Hamda insonlar bunday yolg‘on xabarlariga ishongan holda boshqa chet davlatlariga ishalagani ketyapman deb terrorchilik jinoyatiga bilmagan holda qo‘shilib qolishmoqda.

Terrorizm – bu siyosiy, diniy yoki mafkuraviy maqsadlarga erishish uchun qo‘rqinch va vahima uyg‘otishga qaratilgan zo‘ravonlik harakatlaridir. Uning asosiy sabablari orasida siyosiy beqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, diniy ekstremizm, xalqaro nizolar hamda etnik yoki madaniy ziddiyatlar kabi omillar yetakchi o‘rin tutadi.

Terrorizmning asosiy sabablari:

Siyosiy sabablar: Hukumatga bosim o‘tkazish, o‘z siyosiy maqsadlariga erishish, mavjud tuzumni o‘zgartirish yoki separatizm (hududiy ajralib chiqish)ga urinishlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Qashshoqlik, ishsizlik, ta‘lim darajasining pastligi va aholi o‘rtasidagi keskin ijtimoiy tengsizlik insonlarni radikal g‘oyalarga yetaklashi mumkin.

Diniy ekstremizm: Diniy qarashlarni buzuvchi talqin qilish, boshqa din vakillariga nisbatan murosasizlik va ekstremistik oqimlarning ta‘siri.

Xalqaro nizolar: Davlatlararo to‘qnashuvlar, harbiy aralashuvlar va bosib olingan hududlardagi qarshilik harakatlari terrorizmni keltirib chiqaradi.

Etnik va madaniy ziddiyatlar: Milliy yoki etnik guruhlar o‘rtasidagi nizo va kamsitishlar ham terrorchilik harakatlariga turtki bo‘ladi.

Bu omillar ko‘pincha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, murakkab xavfsizlik muammolarini yuzaga keltiradi.

Terrorizm muayyan guruhning ruxsat etilmagan holatda ongli ravishda kuch ishlatishidir. Bunda terrorchilar aniq maqsadni ko‘zlaydi va o‘zini to‘la haq deb biladi. Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, terrorchilardagi mavjud kuch maqsadni amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bevosita aloqadorlikda bo‘ladi. Shuning uchun biron-bir sababga asoslangan yovuz maqsad terrorizmga olib boradi. Terrorizm ko‘p holatlarda keng miqyosdagi harbiy kuchlar bilan aloqador bo‘ladi va bunday misollar tarixda bir necha bor

kuzatilgan. Bundan tashqari, u ba’zi davlatlarning o’zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ikki xil shaklda kuch ishlatiladi: jazo berish organlari yoki harbiy kuchlar tomonidan. Bunda terror siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yoki aniq bir rejimni joriy qilish uchun amalga oshiriladi. “Terrorizm” tushunchasi hamisha terroristik harakatning tez sur’atda amalga oshirilishini bildiradi. Bunday hodisa siyosiy, etnik, diniy va boshqa ko’rinishlarda namoyon bo’ladi. G’oyaviy terrorizm siyosiy yetakchilar tomonidan yaratiladi. Bunga rasmiy tor doiradagi istisno qilingan ichki sabablar ko’rsatiladi. Etnik terrorizm subyekti g’oyaviy bo’lmagan, jamiyatning milliy va etnik jihatlari bilan uzviy bog’liqdir. Diniy terrorizm muayyan bir diniy sekta yoki guruh ta’limotining jamiyatda mutlaqlashtirilishi oqibatida paydo bo’ladi. Bunda ushbu g’oya tarafdorlari boshqalar fikri va g’oyalarni keskin tanqid ostiga olib, rad etadi va g’oyaviy-mafkuraviy parokandalikni keltirib chiqaradi. Diniy terrorizmning xatarli jihati u qo’lLAYdigan amaliy choralarda ko’rinadi. Chunki diniy terrorizm tarafdorlari aksariyat hollarda qo’lida qurol va ba’zan harbiy guruhlariga tayanib harakat qiladi.

Terrorizm ma’lum bir guruh tomonidan o’z maqsadlariga erishish uchun ongli ravishda kuch ishlatish sifatida izohlanadi. Terrorchilar o’z harakatlarini asosli deb hisoblab, zo’ravonlik orqali ta’sir o’tkazishga intiladi.

Shuningdek, terrorizm jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy omillar bilan chambarchas bog’liq bo’lib, u siyosiy, etnik va diniy shakllarda namoyon bo’lishi mumkin. Terrorizm ongli ravishda, ma’lum maqsad asosida kuch ishlatish ekanligi tushuntiriladi. Terrorchilar o’z harakatlarini to’g’ri deb hisoblab, zo’ravonlik orqali maqsadiga erishishga urinadi.

Shuningdek, terrorizm ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog’liq bo’lib, jamiyatdagi muammolar uning paydo bo’lishiga sabab bo’lishi mumkin. U turli shakllarda, ya’ni siyosiy, etnik va diniy ko’rinishlarda namoyon bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi qonuniga binoan 5-modda muvofiq:

5-modda. Terrorchilik faoliyatining oldini olish

Terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o’tkazish orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilar taqiqlanadi:

terrorizmni targ’ib qilish;

terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko’rsatishi;

terrorchilik faoliyatiga daxldor yuridik shaxslarni, ularning bo’linmalari (filiallari) va vakolatxonalarini (shu jumladan chet el va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini) akkreditatsiya qilish, ro’yxatdan o’tkazish va ularning faoliyat ko’rsatishi;

terrorchilik faoliyatiga daxldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo’lmagan shaxslarning O’zbekiston Respublikasiga kirishi;

tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va faktlarni yashirish.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida qonunning 5-moddasiga ko'ra, terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat, jamiyat va fuqarolarning hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Ushbu qonun terrorizmga qarshi profilaktika siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy choralar majmui orqali olib borilishini belgilaydi.

Ushbu qonunga muvofiq, taqiqlar ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular terrorizmga qarshi kurashning muhim huquqiy kafolati hisoblanadi. Xususan, terrorizmni targ'ib qilish, terrorchilik tashkilotlarini tuzish va ularning faoliyat yuritishi qat'iyan man etiladi. Shuningdek, terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar va tashkilotlarning faoliyatini qonuniylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, terrorchilik bilan bog'liq shaxslarning mamlakat hududiga kirishi cheklanadi hamda terrorchilik harakatlari haqida ma'lumotlarni yashirish ham qonunga xilof hisoblanadi. Bu normalar terrorizmning oldini olishda erta aniqlash va tezkor choralar ko'rish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, terrorizm zamonaviy jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri bo'lib, uning oldini olish kompleks yondashuvni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, terrorchilik faoliyati ko'pincha ijtimoiy-siyosiy omillar, g'oyaviy ta'sir va tashqi kuchlar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Shu sababli unga qarshi kurashish faqat jazolash choralari qo'llash bilan cheklanmasdan, balki profilaktika va ogohlantirish mexanizmlarini kuchaytirishni ham talab etadi.

O'zbekistonda terrorizmga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, xususan Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida qonun, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi orqali mustahkam belgilab qo'yilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, terrorizmga qarshi kurashish samaradorligi davlat organlari, jamiyat va xalqaro hamkorlikning uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida radikal g'oyalar tarqalishining oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash va huquqiy ongni oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, terrorizmga qarshi kurashishda huquqiy asoslarni takomillashtirish, profilaktik choralarni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyat xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyot ro'yhati:

<https://oyina.uz/uz/teahouse/2329>,

<https://lex.uz>, <https://uz.wikipedia.org>, <https://lex.uz/docs/111457>,

<https://www.visionofhumanity.org/maps/global-terrorism-index/>

<https://insonhuquqlari.uz>,
<https://www.un.org/counterterrorism>